

Xudayberdiyev Ikrom Ilxomjon o'g'li,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar
universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix"
kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

AFG'ONISTONDA AMIR OMONULLAXON ISLOHOTLARI VA UNING INQIROZ SABABLARI

***Annotatsiya.** Davlatlarning rivojlanishi ularda amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir. Ushbu jarayon keng ko'lamda Afg'onistonda Amir Omonullaxon davrida amalga oshirilgan bo'lib, maqola islohotlarning kamchiliklari va uning nega afg'on jamiyatida tomonidan read etilishi yoki ijobiy ta'sir etmaganligini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada afg'on manbalari asosida ilmiy xulosalar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Amir Omonullaxon, Britaniya Hindistoni, Maxmud Tarzi, Bachai Saqo, F.Raskolnikov, "Правда" gazetasi, "Известия" gazetasi.*

AMIR AMANULLAHON'S REFORMS IN AFGHANISTAN AND THE CAUSES OF HIS CRISIS

***Abstract.** The development of states depends on the reforms implemented in them and their results. This process was widely implemented in Afghanistan during the reign of Amir Amanullah Khan, and the article sheds light on the shortcomings of the reforms and why they were not read by Afghan society or had a positive effect. The article also provides scientific conclusions based on Afghan sources.*

***Keywords:** Amir Amanullah Khan, British India, Mahmud Tarzi, Bachai Saqa, F. Raskolnikov, Pravda newspaper, Izvestia newspaper.*

РЕФОРМЫ ЭМИРА АМАНУЛЛАХОНА В АФГАНИСТАНЕ И ПРИЧИНЫ ЕГО КРИЗИСА

***Аннотация.** Развитие государств зависит от проводимых в них реформ и их результатов. Этот процесс широко осуществлялся в Афганистане во время правления эмира Аманулла Хана, и в статье освещаются недостатки реформ и причины, по которым они не были восприняты афганским обществом или не оказали положительного эффекта. В статье также приводятся научные выводы, основанные на афганских источниках.*

***Ключевые слова:** Амир Аманулла-хан, Британская Индия, Махмуд Тарзи, Бачай Сака, Ф. Раскольников, газета «Правда», газета «Известия».*

Kirish. Amir Omonullaxon hukumati davrida Afg'oniston nafaqat to'la mustaqillikka erishdi, balki ko'plab mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Bundan tashqari, amir chet el safari davomida Yevropa va Osiyodagi yetakchi davlatlarga tashrif buyurdi. Amir nafaqat mustamlakachilikka qarshi kurashgani uchun butun dunyoda mashhur bo'lgan, balki o'z mamlakatida chuqur islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi sifatida tanilgan. Uning hukmronligi davrida Afg'oniston davlatining birinchi konstitutsiyasi qabul qilingan. Afg'onistondagi hayotning barcha sohalarini modernizatsiya qilish diniy sohaga ham ta'sir ko'rsatdi. Bu islohotlar islomiy tamoyillardan ajralib chiqishga olib keldi.

Eronda va ayniqsa Turkiyada amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatining ta'siri ostida Omonullaxon Afg'onistonda modernizatsiya jarayonini jadallashtirishga qaror qildi. Omonullaxon boshqaruvi davrida o'z mamlakatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmadi.

84 Davom etilayotgan islohotlarda hamma narsa silliq kechmadi. Ularning faqat kichik bir qismi tugatildi xolos, ko'pchiligi esa amalga oshirish jarayonida rad etildi yoki salbiy kutib olindi.

Adabiyotlar tahlili. Omonullaxon hukmronligi davrida Omonullaxon tomonidan amalga oshirilgan islohotlar haqida rus, ingliz, turk va afg'on tarixchi olimlari tomonidan ko'plab asarlar yozilgan. Umuman, ushbu mavzuga doir asarlarni, manbalarni ko'plab uchratish mumkin. Xususan, Omonullaxon islohotlari haqida Sykes Persy [1], Gregorian Vartan [2], Poullada Leon [3] Коргун В.Г., [4] Choqiyev Mustafu, [4] С. Боронбеков [6], Алексеенков, [7] W Adamec Ludwig [8] kabi tarixchi olimlarning nashr qilingan asarlari alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu olimlarning asarlarida faqat so'nggi tadqiqot natijalaridan foydalanilgan holda ushbu mavzu yoritilgan. Ushbu nashrlarda Omonullaxon islohotlariga urg'u beriladi, jumladan Sykes Persyning "Afg'oniston tarixi" (A History of Afghanistan) asari Afg'onistonda Omonullaxon islohotlarining Afg'onistonning rivojlanishiga ta'siri va ayrim islohotlarning ijobiy va salbiy taraflari yoritilgan. Sykes Persy harbiy (general), diplomat va yozuvchi sifatida tarixda qolgan. Buyuk Britaniya armiyasida xizmat qilgan, shuning uchun ham yozuvchi ko'plab tarixiy kitoblar muallifi. Gregorian Vartan tomonidan yozilgan bir necha asrlar mavjud bo'lib, jumladan "The Emergence of Modern Afghanistan" nomli asarida Omonullaxon va uning avlodlarining hayoti va ijodi haqida yoritilgan. Shuningdek, asarda Omonullaxon, Amir Abdurahmon va Habibullaxon islohotlarining qiyosiy tahlili yoritib berilgan. Gregorian Vartan Eronning Tabriz shahrida tug'ilgan va Amerikaning bir necha nufuzli oliy o'quv yurtlarining bosh rahbari sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishimni tayyorlashda Korgunning "XX-asrda Afg'oniston tarixi" deb nomlangan asardan foydalandim. Ushbu asar Omonullaxongacha bo'lgan davr va keyingi davrlarni o'z ichiga oladi. Omonullaxon islohotlari va ushbu islohotlarning natijalari, tashqi doiralarning islohotlarga munosabatlari, va ayrim tarixchilar tomonidan ushbu islohotlarga bo'lgan munosabatlarini yoritib berilgan. Choqiyev Mustafoning "The Situation in Afghanistan. —The Asiatic Review" asrida ham bu mavzu doirasidagi izlanishlarga duch kelishimiz mumkin. Amir Omonullaxonning asosiy maqsadi kuchli afg'on davlatini yaratish edi. Va bu borada eng muhim va murakkab vazifalardan biri Afg'onistonni mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zoligiga kiritish edi. Ammo amir hokimiyatga kelgan paytda, boshqa masalalar kun tartibiga kirdi. Birinchi navbatda, Afg'oniston tashqi siyosatdagi mustaqilligini tiklash va amirning otasi davrida kuchsizlanib qolgan hokimiyatini qayta isloh qilish edi. Bu vaqtga kelib, bu muammoni hal qilish uchun qulay xalqaro vaziyat yuzaga keldi. Mintaqadagi Britaniya qurolli kuchlari Markaziy Osiyoda Sovet hokimiyatiga qarshi kurash bilan shug'ullanar, va shuningdek, Britaniya Hindistonida isyon xavfi bor edi. Amir to'liq mustaqillik tiklash masalasini ko'tarish vaqti kelganini tushunib yetdi. Afg'oniston Britaniya davlatiga qarshi urush qilish imkoniyatiga ega bo'layotgandi. Bu esa yaqin vaqt orasida urush xavfi borligidan dalolat berardi.

Iqtisodiy, diniy, harbiy islohotlar konstitutsion davlat qurishning ajralmas bir qismi bo'lib, qonunlar bilan mustahkamlangan va yangi o'zgarishlar joriy etilgan. Omonullaxonning so'zi bilan aytganda "milliy hayotning har bir sohasida islohotlar qilmoqchi edi" [9]. Xalqning davlatga qarshi salbiy kayfiyatda bo'lishiga diniy va ijtimoiy islohotlar sabab bo'ldi. Masalan, xotin-qizlar huquqlari, nikoh qurish, dafn marosimlari bilan bog'liq va ushbu islohotlarning tub mohiyati va ildizlarini o'rganish zarur edi. Islohotlar xalq orasida norozilik kayfiyatini uyg'otmasligi mumkin edimi?

Muhokama. Nima uchun Omonullaxon islohotlari natija bermadi? Islohotlar shaharlardagina amalga oshib, qabilalar orasida qo'llab-quvvatlanmadi, islohotlar qabilalarga faqat ovozlar bilan kirib keldi. Islohotlar to'liq amalga oshirilmadi va nazorat qilinmadi. Chekka hududlardagi qabilalar qonunlarning asl mohiyatini tushunib yetmasdan. Shuningdek qonun joriy etilmasdan qonunga qarshi qilingan targ'ibotga qo'shilib ketdilar. Salbiy jarayonlarga xalqning yetarli darajada ma'rifatli emasligi ham sabab bo'ldi. Qabila boshliqlarining turli xil imtiyozlarining olib tashlanishi ham qabilalarni boshqarib turgan qabila xonlarining kayfiyatiga va boshqaruviga ta'sir ko'rsatdi. Qabila boshliqlari hukmronligini zaiflashishi va boshqaruvni qo'ldan chiqarishdan qo'rqib, Omonullaxonni qo'llab-quvvatlamadilar. Qabila boshliqlari o'z xalqini Omonullaxonga nisbatan qarshi chiqishi uchun harakat qilishdi. Omonullaxonning qabila

rahbarlariga nisbatan hech qanday xusumati yo'qligini faqatgina xalqning ongini va dunyoqarashini o'zgartirish bilangina erishish mumkin edi. Omonullaxon xalqni taraqqiyotga qarab olg'a bosishga chorlagani va islohotlarga ishonishini hohlagan. Islohotlar natijasida kuchli va professional rivojlantirilgan armiya ham qabilalarning qo'zg'olonlarini bostirishga qodir emas edi.

Iqtisodiy islohotlarda: milliy daromad oshdi, savdo turlari ko'paydi, ijtimoiy turli xil ish o'rinlari yaratildi, ishlab chiqarish, kommunikatsiya va konchilik sohalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Lekin yerga bo'lgan xususiy mulkchilik shaklining qonuniyligi ta'minlanmadi, chunki Afg'onistonda yerni sotish, sovg'a qilish, meros sifatida olish kabi jarayonlar kuzatilmagan. Ko'chmanchi qabilalarning podalari mavjud qoramol va boshqa mayda tuyoqli jonivorlarni sanoqdan o'tkazish, jonivorlarga soliq to'lash xonlar va maliklarning tushumlariga katta zarar keltirdi. Qabilalar soliqlarni o'zlari yig'ishgan va sarflashgan. Iqtisodiy islohotlar natijasida ushbu vakolat davlat ixtiyoriga o'tdi.

Omonullaxonning ijtimoiy islohotlari diniy islohotlarga katta ta'sir ko'rsatib, natijada katta kuch va mavqega ega bo'lgan qabila boshliqlari va mullalarning obro'sini tushurib yubordi. Davlat bilan qabilalar o'rtasidagi qonli kurashlar Omonullaxonga qattiq zarba bo'ldi. Voqealarning asosiy sababi islohotlar natijasida yuzaga keldi va ayrim qabila vakillari orasida liderlar yetishib chiqib hokimyat kuchsizlangungacha kutib turishdi. Islohotlar muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga yana bir necha faktorlar mavjud. Masalan Omonullaxon va uning maslahatchilarining siyosiy jarayonlarda tajribasizligi va islohotlarning shoshmashosharlik bilan amalga oshirilishi muvaffaqiyatsizlikka olib kelgan. Xost voqealaridan keyin Omonullaxonning naqadar kuchsiz ekanligi ko'rsatdi. Omonullaxon aniq va ishonch bilan Afg'onistonni modernizatsiya qilmoqchi edi va xalq amalga oshirilgan islohotlarni to'g'ri tushunishiga ishongan. Maxmud Tarzi 1952-yilda hokimyatning kuchsizlanayotganligini sezgan. Maxmud Tarzi: "Omonullaxon chiroyli fundamenti yo'q monument o'rnatdi, lekin uning tagida bir g'isht olinsa fundament ag'anaydi"[10].

Omonullaxonni vafodor va qo'llab quvvatlaydigan sodiq siyosiy izdoshlar kerak edi. Omonullaxonni o'rab turganlar faqat saroy hayoti bilan cheklangan yolg'onchi va riyokor hech qanday obro'ga va kuchga ega bo'lmagan amaldorlar edi. Omonullaxon kuchli va ta'sirchan ideologiyaga ega emas edi va Omonullaxonning birinchi quroli faqat diniy g'oyadan foydalanadi. Jaholatga ma'rifat bilan kurashdi, lekin bu kurashda ma'rifatli insonlar kamchilikni tashkil qiladi. Omonullaxon islohotlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalandi. Lekin gazeta o'qiydigan odamlar kamchilikni tashkil qiladi. Katta shaharlarda yoki bozorlardagi ovozalarga ishonib qolishardi. Omonullaxon davrida axborot vazirligiga o'xshash birorta tashkilot yo'q. Axborotlar tarqatilishi, davlat propagandasi va agitatsiyasi yo'q edi. Faqat Lo'ye Jirg'a (1921, 24, 28-yillarda) a'zolarigina o'zining uchta hududida aholisiga og'zaki holatda bu xabarlarini yetkazishi mumkin. Davlat amaldorlarining deputatlarga bergan hisobotlari qo'llab-quvvatlanmagan. Omonullaxon yuqori tabaqalardagi korrupsiyani yo'q qilish bilan birga yuqori tabaqa vakillarining barcha imtiyozlarini yo'q qilishi ham bazi amaldorlarga yoqmagan.

Sovetlarning fikri: "Omonullaxonning hukumati ag'darilishiga sabab, tashqi ta'sir 1928-yildagi jarayonlarni tezlashtirdi Omonullaxonning hukumatdan ketishi Buyuk Britaniyaning nayrangiyasi edi. Buyuk Britaniya hukumati ta'sirida yuzaga kelgan Bachai Saqoni sovetlarga qarshi kuch deb atashgan. "Правда" gazetasi Buyuk Britaniyaning polkovnigi T. Lourensini davlatga qarshi qo'zg'alonda ayblaydi[11]. "Известия" gazetasi yozishicha: "Inglizlar o'zlarining Hindistondagi yerlarini yanada ko'paytirishga va Sovet Ittifoqiga qarshi harakat qilmoqda" [12].

Yevropa davlatlarining matbuotlarida ham Omonullaxon hukumatining ag'darilishida Buyuk Britaniyaning qo'li borligi qayta-qayta ta'kidlandi. Buyuk Britaniya Hindistonning yonida kuchli davlat bunyod bo'lishini istamagan. Omonullaxon o'z halokatini revolyutsion harakat emas bu reaksiyon qo'zg'olon deb baholaydi. Afg'on tarixchilarining fikricha: "Omonullaxonning muvaffaqiyatsizligi xalq amalga oshirilgan islohotlarining taraqqiyot uchun muhimligini tushunib yetmaganligida va qabul qila olmaganligida, boshqacha qilib aytganda ushbu islohotlar uchun xalq tayyor emasligi" bilan izohlanadi.

Sovet elchisi F.Raskolnikov “Omonullaxon milliy burjuaziya bo’lmagan mamlakatda burjua islohotlarini qo’lladi. Islohotlar iqtisodiy bazaga ega emas edi” deb yozadi[13]. Omonullaxon xalqni katta soliqlar bilan ko’mib tashlagan, natijada xalqning yashash turmushiga juda katta ta’sir ko’rsatgan. Amaldorlar juda kam oylik maosh olishgan, natijada davlat apparatida korrupsiya avj oldi. Boshqaruvning sustligi chekka hududlarda g’alayonlarni keltirib chiqardi.

Xulosa. Omonullaxonning islohotlarining ko’plab ijobiy taraflari ham mavjud, jumladan, davlat tizimini tubdan o’zgartirdi va Afg’oniston xalqining dunyoqarashini o’zgartirdi. Shuningdek diplomatik munosabatlarda osiyo va yevropa davlatlari bilan aloqalar o’rnatdi. Omonullaxon hukumronlik davrida juda ko’p davlatlarga sayohat qilgan va Omonullaxon amalga oshirgan islohotlarda chet davlatlarning ahamyati katta. Bu davrda Afg’oniston barcha davlatlar uchun o’z eshigini ochdi. Iqtisodiy va madaniy munosabatlar yo’lga qo’yildi. Zamonaviy maktablar ochildi, chet tillarini o’rganish qo’llab quvvatlandi, chet elga o’qitish uchun talabalar jo’natildi. Transport va kommunikatsiya tizimi yaxshilandi. Xotin-qizlarga nisbatan bir qancha imtiyozlar berildi.

Tarixchilar tomonidan Bachai Saqoning davlat tepasiga kelishi taraqqiyotni chuqur ortga qaytishi sifatida baholanadi. Abdurahmon, Habibulla va Omonulla davrida qilingan barcha islohotlar Bachai Saqo davrida barcha qo’lga kiritilgan muvaffaqiyatlar, o’zgarishlar yo’q qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sykes Persy. A History of Afghanistan. – London. 1940. – 645 p.
2. Vartan Gregorian. The Emergence of Modern Afghanistan. – Stanford: California, 1969. – 586 p.
3. Poullada Leon. Reform and Rebellion in Afghanistan, 1919-1929. – United Kingdom: Cornell University Press, 1973. – 318 p.
4. В.Г.Коргун История Афганистана. – Москва: Крафт, 2004. – 525 с.
5. Choqiyev Mustafo. The Situation in Afghanistan. —The Asiatic Review. Москва. 1930. – 420 p.
6. С. Боронбеков Уголовное уголовно-исполнительное право Афганистана. – Рязань. 1993. – 453 с.
7. Алексеенков. Аграрный вопрос в Афганском Туркестане. – Москва. 1933. – 254 с.
8. Adamec Ludwig W. Afghanistan 1900—1923: A Diplomatic History. –Berkeley and Los Angeles: University of California Press, 1967. – 342 p.
9. Poullada Leon. Reform and Rebellion in Afghanistan, 1919-1929. – United Kingdom: Cornell University Press, 1973. – 143-144 p.
10. “Aman-e Afgan” gazetasi 07.01.1929
11. “Правда” gazetasi 20. 12. 1928.
12. “Известия” gazetasi 20.12.1928.
13. F.F Raskolnikov. The War in Afghanistan. – The Labour Monthly – London. 1929. – 180-183 p.